


DIDAKTIK O'YINLARNING BOLA AQLIY RIVOJLANISHIGA TA'SIRI



Sa'dullayeva Shohida Salimovna

Jondor pedagogika kolleji

Maktabgacha ta'lim pedagogikasi fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada, maktabgacha ta'lim tizimiga yangicha yondashuv asosida noan'anaviy mashg'ulotlarni tashkil etishning mazmun-mohiyati, mashg'ulot jarayonida didaktik o'yinlardan foydalanish, uning bolalar tomonidan mavzularni samarali o'zlashtirilishiga ta'siri asoslangan

Kalit so'zlar: ta'lim, innovatsiya, ta'lim texnologiyasi, pedagogika o'yin usullari, ijodiy fikrlash, badiiy tasavvur, dunyoqarash, sezgi, qiziqish, o'quv materiali, didaktik o'yinlar.

Didaktik oyinlar - Bu ta'limning eng muhim vositalaridan biridir. Axir, o'ynab, bola o'rganadi va shuning uchun rivojlanadi. Bolalar didaktik o'yinlari bolani diversifikatsiya qilishning asosiy vositasidir, o'yin umuman shaxsning asosiy fazilatlarini tarbiyalashga yordam beradi. Shunday qilib, o'yin jarayonida bolalar o'zlarini o'rabi turgan narsalarga, kundalik hayotning hodisalariga, tabiatga, o'yinlarga to'g'ri munosabatni shakllantiradi va bolaning bilimini chuqurlashtiradi, bu, albatta, aqliy tarbiyadir. Bolalar didaktik o'yinlari hissiyotlarni rivojlantiring, chunki atrofimizdag'i dunyoni to'liq anglash uchun bola uni his qilishi va idrok qilishi kerak. Didaktik o'yinlar bolalar nutqini rivojlantirishga katta e'tibor beradi. O'yinda bola so'z boyligini boyitadi, ham faol, ham passiv, tovushlarni va butun so'zlarni to'g'ri talaffuz qilishni, jumlalarni tuzishni, o'z fikrlarini aniq ifoda etishni o'rganadi.

O'yin bola hayotining uzviy qismidir. O'yin orqali bola bilim va ma'lumot oladi. O'yin tarbiyaning eng muhim vositalaridan biridir. O'yin bola uchun ovutish, xursandchilik, rohatlanish, hordiq chiqarish vositasi bo'lib qolmay, balki uning qaddiqomatini kamolga yetkazuvchi omil ham hisoblanadi. Albatta, o'yin vositasida tarbiyalash bolaning turli yosh davrlarida turlicha sifatga, xususiyatga ega bo'ladi.

Didaktik o'yin bolalarning aqliy jarayonlarini faollashtiradi, ma'naviy va axloqiy kamolotida ularni mukammal inson bo'lib kamol topishida g'oyat tarbiyaviy ahamiyatni kasb etadi.

Didaktik o'yinlar - asosan ta'lim jarayonini bolalarning yosh xususiyatlari va tayyorgarliklariga qarab samarali tashkil qilishga, ularga bilim va ma'lumot berishni yengillashtirishga, bolalarni toliqtirmaslik va zeriktirmaslik imkonini yaratadi.

Didaktik o'yinlar bolalarning aqliy faoliyatlarini, ongini o'stirishga xizmat qiladi, shu bilan bir qatorda ularning nutqini o'stirish, atrof muhit bilan, tabiat bilan

tanishtirishda bolalarning ekologik tarbiyasida ham keng qo'llaniladi. Didaktik o'yinlar xilma-xil materiallar asosida tashkil qilinadi.

Didaktik o'yining boshqa o'yin turidan farqi shundaki, mактабгача va kichik mакtab yoshidagi bolalarga ta'lim berishda o'yining bu turidan keng foydalaniлadi. Bola o'yinda ishtirok etish jarayonida bilim oladi, malaka va ko'nikmalar hosil qiladi.

Didaktik o'yining asosiy mohiyati shundaki, kattalar tomonidan bolalarga o'yin shaklida aqliy vazifani bajarish hal etish vazifasi topshiriladi. Buning asosiy maqsadi bolalarning bilishga bo'lган qiziqishini shakllantirishni faollashtirishdir.

Didaktik o'yin mazmuni o'z ichiga asosan quydagi 4 omilni oladi:

- 1.O'yining mazmuni;
- 2.O'yin harakati;
- 3.O'yin qoidasi;
- 4.O'yin yakuni.

1.O'yining mazmuni: Har bir didaktik o'yinda ma'lum didaktik maqsadga qaratilgan vazifa qo'yiladi. Bu vazifa bolalarga bilim va ma'lumot berishni ko'zda tutadi. Har bir didaktik o'yin bolalardan ma'lum vazifani bajarishni talab etadi. Bu vazifani bajarish maqsadida bola o'zining fikrlash qobiliyatini faollashtiradi, oldingi olgan bilim va ko'nikmalarini esga tushurishga harakat qiladi.

Shuni ham eslatib o'tish lozimki, bolalar bilan o'tkaziladigan har bir didaktik o'yin ularda aniq bilimga, narsa va buyumlarga qiziqish uyg'otishi, bolalar diqqatini jalg qila olishi lozim. Bolalar oldiga qo'yilgan vazifa bolalar tushunchasiga mos bo'lmasa ularni qiy nab qo'ysa u vaqtida o'yin o'z qimmatini yo'qotadi. Bolalar qiziqmagach, vazifa bajarilmaydi, maqsadga erishilmaydi.

2.O'yin harakati: Didaktik o'yining yana bir muhim xususiyati borki, bu o'yin harakatidir. O'yin harakati bolalarni o'ziga jalg qilish bilan ularning faoliyatini faollashtiradi., O'yin harakati esa o'yin mazmuniga ko'ra turlichadir. O'yin harakati ayrim vaqlarda musobaqalashish bilan bog'langan bo'lsa, ayrim vaqlarda esa o'z navbatini o'tkazib yubormaslik (loto, domino o'yinlari) bilan bog'langan bo'ladi.

O'yin harakati o'ynovchi bolalarning ko'p-ozligiga qarab yengillashadi. Bola oz bo'lsa o'yin harakati soddalashadi. Bundan tashqari o'yin harakatini bolalarning yoshiga va bilim doirasiga qarab ham murakkablashtirib boriladi.

3.O'yin qoidasi: Didaktik o'yin hamma vaqt ma'lum o'yin qoidasiga bo'ysunadi. O'yinga qatnashuvchi bolalar o'yin qoidasiga rioya qilishlari bilan o'z oldilariga qo'ygan vazifani bajaradilar. Didaktik o'yindagi harakat o'yin qoidasi bilan bog'liq bo'ladi. O'yin qoidasi bolaning o'yinda o'zini qanday tutishi, nimani qanday bajarish kerakligini ko'rsatadi.

O'yin qoidasi didaktik o'yinda o'yinni tashkil qilish tartibidan iborat bo'lib, qoidaga rioya qilish orqali maqsadga erishiladi.

Har bir o'yinni o'ynashdan oldin bolalarga o'yin qoidasi, o'yin mazmuni uning yakuni nimadan iborat ekaligi o'qituvchi va tarbiyachilar tomonidan tushuntiriladi. Bolalar uni tushunib, anglab shu asosda harakat qiladilar.

Didaktik o'yin qoidasiga rioya qilish bolalar faoliyatini boshqaradi, ya'ni o'yin vazifasini bajarish uchun nima qilish kerakligini aniqlashga yordam beradi.

4. O'yin yakuni: Har bir didaktik o'yin o'zining ma'lum yakuni natijasiga ega. O'yinda ma'lum kutilgan natijaga erishish esa o'yin qoidasiga rioya qilish, vazifani bajarish orqali amalga oshiriladi. O'yin shunday yakunlanadiki, bolalar o'yindan ma'naviy ozuqa oladilar, ularga ma'lum darajada bilim beriladi, yangi bir narsaga o'rgatiladi.

Didaktik o'yinlarning tanlash prinsiplari.

Didaktik o'yinlarni tanlashda bolalarga bilim, tarbiya berishning quyidagi tartib-qoidalariiga rioya qilinadi:

1. Didaktik o'yinlarni tanlash va ulardan foydalanishda bolalarlarning yosh xususiyatlari, pedagogik jihatdan tayyorgarligi va bilim saviyasi hisobga olinadi.

2. Tanlangan har bir o'yin bolarga sistemali bilim berishi, malaka va ko'nikmalar hosil qilishi bilan birga ularning barkamol bo'lib yetishishiga va ruhan tetik o'sishiga qaratilgan bo'ladi.

3. Didaktik o'yinlarni tanlashda ta'limning aniq maqsad va vaifalari asos qilib olinadi. Didaktik o'yinlar ta'lim mazmunini aniqlashtirishning muhim vositalaridandir.

4. Didaktik o'yinlarni tanlashda o'yinning ta'lim jarayoni bilan uyg'unlashishiga ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishga bolalarning faolligi, tashabbuskorligi va ijodiy qobiliyatlarini o'stirishga alohida ahamiyat beriladi. Har bir o'yin bolalar uchun "hayot tajribasi" bo'lib qolmasada, ularni mustaqil fikrlashga, hiss tuyg'ularini rivojlantirishga da'vat etadigan bo'lishi zarur.

5. Didaktik o'yinlarni tanlashda har bir sinfning saviyasi, o'ziga xos xususiyatlari, ta'lim muassasasining shart-sharoitlari hisobga olinadi. Chunki bir sharoitda yaxshi natija bergen o'yin o'zga bir sharoitda yaxshi bermasligi mumkin.

6. Didaktik o'yinlarni tanlash va tashkil etishda, yangi o'yinlarni kashf etishda tarbiyachining tayyorgarligi, mahorati, metodik saviyasi, o'yinga bo'lgan shaxsiy munosabati va izlanishlari alohida ahamiyat kasb etadi.

Tarbiyachilik chinakam ijodiy ish. U yosh avlodning qalbini kashf etadi. Unga sayqal beradi. Tarbiyachi bolalar ma'naviy dunyosini, o'yin xazinasini hamisha ardoqlab to'ldirib turadi. Bolalarning o'yin qobiliyatini rivojlantirib boradi.

Bola yangi –yangi o'yinlarning doimiy ijodkoridir.

Xulosa:

Bolalarning o'yinga bo'lgan tabiiy ehtiyojlarini qondirish bilan birga bolalar tez harakat qilish, chap berish, o'yin qoidasiga rioya qilish, jamoada ahillik kabi yaxshi

fazilatlarni singdiradi. Bunday jamoa o'yinlari jarayonida bolalar tashkilotchilikka, qonun-qoidalarga rioya qilishga, hayotni bilishga o'rganadilar. Demak, bolalarning doimiy hamrohi o'yindir O'yinlar bola uchun ham dunyoni bilish, ham mehnat faoliyati, ham ma'naviy his-tuyg'ular va odatlarning tarkib topishi, ham harakat qilish talabini qondirish, ham bolalar bilan muomala qilish usulidir. O'yin bolalar yoshiga mos bo'lsa, u dangasani mehnatsevar, tirishqoq, prinsipial bo'lishga, bolalar jamoasini uyushtirishga, ba'zi uyatchan va indamas bolalarni faol faoliyatga olib kirishga yordam beradi, intizom saqlashga, boshqalarning xatti-harakat-larini to'g'ri baholashga o'rgatadi.

Foydalilanigan adabiyotlar:

- 1.“O‘zbekiston Respublikasining ilk va mакtabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan davlat talablarini tasdiqlash haqida”gi O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha Ta’lim Vazirining buyrug‘i. Ro‘yxat raqami № 3032. 03.07.2018-y.
2. Grosheva I., Yestafyeva L., Maxmudova D., Nabixanova Sh., Pak S., Nazarova V. G., Abdunazarova N., Isxakova M. “Ilk qadam” Maktabgacha ta’lim muassasalari uchun Davlat o‘quv dasturi, to‘ldirilgan ikkinchi nashr. Toshkent-2022.
3. Atayeva N., Salayeva M., Hasanov S. Umumiy pedagogika. T., 2013 y. 3. Avliyaqulov N., Musaeva N. Pedagogik texnologiyalar. T., 2008 y.
4. Zunnunov A., Maxkamov U., Didaktika (Ta’lim nazariyasi). O.O’Yu uchun qo’llanma.T., Sharq, 2006y.
5. Mavlonova R. , Vohidova N. , Rahmonqulova N. Pedagogika nazariyasi va tarixi. „Fan-texnologiya“ T., 2010y.
6. Mahmudov A.X. Uzluksiz ta’lim jarayoniga kompetentlik yondoshuvini joriy qilishning didaktik asoslari // Uzluksiz ta’lim. 2012y. №4 . 8-12 betlar.
- 7.M.Daminova, T.Adambekova “O‘yin mashg’ulotlari” Toshkent.”O’qituvchi” nashriyoti-1993y.
8. T. Usmonxo‘jayev, F. Xo‘jayev. «Harakatli o'yinlar».T.O.- 1996yil
9. Yestafyeva L., Nabixanova Sh., Pak S., Isxakova M., Kim N., Rizayeva X., Kayalova Y., Nuritdinova L., Maxmudova V., Vlasova Y., Buyanova N., Daukayeva A., Karimova F. “Maktabgacha ta’lim tashkilotida ta’lim jarayonini mavzuli rejalashtirish”. Toshkent-2018
10. R. Yo'ldosheva. «O'zbek xalq o'yinlarining tarbiyaviy ahamiyati»